

Mustafayev Baxtiyor Ibragimovich

Buxoro davlat universiteti
musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسي
professori, pedagogika fanlari nomzodi.

O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI MAKTAB MUSIQA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa madaniyati fani mazmun-mohiyatida o'qituvchining kasbiy kompetentligi, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchisi kasbiy kompetentligining ahamiyati, ta'limni tashkil etishda o'qituvchining innovatsion yondashuvi, pedagogik imkoniyatlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, musiqa ta'limi, Davlat ta'lim standarti, zamonaviy musiqa darslari, nazariy-musiqiy bilim, ta'lim texnologiyalari, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi faoliyati, ta'lim samaradorligi, o'qituvchining kompetentlik darajasi.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕДАГОГА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ШКОЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье обсуждаются профессиональная компетентность педагога в содержании предмета музыкальной культуре, значение профессиональной компетентности преподавателя в повышении эффективности обучения, инновационный подход педагога в организации образования, педагогические возможности.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, музыкальное образование, Государственный образовательный стандарт, современные уроки музыки, теоретико-музыкальные знания, образовательные технологии, восприятие музыки, музыкальная деятельность, эффективность обучения, уровень компетентности педагога.

PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TEACHER AS A FACTOR OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF SCHOOL MUSIC EDUCATION

Annotation. This article discusses the professional competence of a teacher in the content of the science of musical culture, the importance of a student's professional competence in increasing the effectiveness of teaching, the innovative approach of a teacher in organizing education, pedagogical opportunities.

Key words: professional competence, music education, State educational standard, modern music lessons, theoretical and musical knowledge, educational technologies, listening to music, musically literate activities, teaching effectiveness, teacher competence level.

Zamonaviy maktab musiqa ta'lim-tarbiyasi tizimining dolzarb muammolaridan biri o'qituvchi kasbiy kompetentligini takomillashtirishdir. O'sib kelayotgan avlodning musiqiy madaniyat tarbiyasi, ularning did va ma'naviy extiyojlari shu yo'nalishdagi tayyorgarlikning qanchalik sifatli bo'lishiga bog'lik, chunki darslarda o'quvchilar tomonidan faqat musiqa o'quv materialini o'zlashtirish emas, balki ularda ong, odob-xulq madaniyatining shakllanishi, ichki his-tuyg'ularning o'sib borishi ham nazarda tutiladi.

Musiqa san'ati vositasida yoshlarning tarbiyasi, musiqa ta'limi samaradorligini oshirish masalasi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Endilikda asosiy maqsad – o'quvchi faqat egallangan bilim va ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish bilan emas, balki undan mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishi va hayoti davomidagi turli ijtimoiy munosabatlarda oqilona foydalana olishi joiz [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ 391-sonli qarorida bolalarni madaniyat va san'atga keng jalb qilish, ular bilan tizimli ishlash, madaniyat hamda san'at muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish borasida qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjudligi belgilab berildi[2]. Shuningdek, musiqa ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini takomillashtirish, ularga malaka toifasi berish mexanizmini qayta ko'rib chiqish, bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini yo'lga qo'yish vazifalari qo'yildi. Musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmunida ham "Yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan va umumbashariy musiqa boyliklarini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish" [3] maqsad qilib belgilandi.

Музыка таълими самарадорлигини оширишда, таълимга замонавий ёндашувда, ўқувчиларнинг музыка дарсига бўлган кизиқишларини ўстиришда, эҳтиёжларини қондиришда, албатта ўқитувчининг ўрни катта.

Tadqiqotchilar M.T.Turg'unov, B.X.Daniyarov, M.A.Umaraliyeva Sh.S. Shodmonovalarning fikriga ko'ra, o'qituvchi kasbiy mahorati, kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida natijaviylikni ta'minlash uchun quyidagi shartlarning bajarilishini zaruriyatligini belgilaydi:

- o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi, tajribasi hamda o'z faoliyati samaradorligi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- o'qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;
- o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun zaruriy va qulay shartsharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish;
- o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlariga murakkab innovatsion pedagogik tizim sifatida yondashish;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarda o'z faoliyati samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash ko'nikmalarini shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'sirning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish [4].

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ta'lim jarayonlarida samaradorlikka erishish uchun motivlarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchilarda hosil bo'ladigan ehtiyojlar, ularning bilimi, ko'nikma, malakasi hamda tajribasi, dunyoqarashi va qiziqishlari, o'qituvchilar yashayotgan hamda ishlayotgan muhitning holati, tarbiyaviy munosabatlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'sirning o'ziga xos xususiyatlari, refleksiv va tizimli yondashuvlar hamda innovatsion faoliyatning zaruriyatini motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida inobatga olinishi zarur.

Tadqiqotchi F. Yusufxodjayeva o'qituvchilarda kasbiy mahoratni oshirish va kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik jarayonlar to'g'risida hamda o'qituvchilarning tasavvuri, tushunchalarining rivojlanishi, dunyoqarashining o'zgarishi bo'yicha uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda obyektiv baholash eng asosiy vazifalardan, deb hisoblaydi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirish yo'llari, o'qituvchilarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirish omillari, vositalari aniqlanadi hamda samaradorlik ta'minlanadi[5], deb ta'kidlaydi.

Zamonaviy musiqa madaniyati fani o'qituvchisidan tashkil etayotgan darsining mazmuni va o'qituvchilar imkoniyatidan kelib chiqqan holda, mashg'ulot jarayonida ilg'or usullar asosida

innovatsion texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish talab etiladi. Bu talabni amalga oshirishda o'qituvchi kasbiy kompetensiyalarning roli katta. O'qituvchining kasbiy kompetensiyalari o'quvchilarda muomala madaniyati, musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishda qiziqish va faollikni ta'minlash, musiqa asarlarini tinglash va tahlil etish, kuylash, savodxonlik, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqiy ijodkorlik kabi malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda mutaxassisligi bo'yicha malaka oshirayotgan ayrim o'qituvchilarining kompetentlik darajasi, kasbiy mahorati bilan tanishilganda, ularning faoliyatida axborot-ta'lim texnologiyalari va o'qitish vositalarini ta'limda keng tadbiq etish, dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, o'quvchi-yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ijodkorlik, tashabbuskorlik sifatleri yetishmayotgandek tuyuladi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchida yangicha ijodiy fikrlash hamda yondashuv, badiiy tafakkur va dunyoqarashni yanada kengaytirish, pedagogik, axborot texnologiyalarini mukammal o'zlashtirishni taqozo etadi. Binobarin, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanidan o'kuv rejasi, dasturi, ta'lim standartini ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali tatbiq etish, o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishlariga undash bevosita pedagog faoliyatiga bog'likdir.

Musiqa ta'limi samaradorligini oshirishda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyos, albatta. Ammo darsliklar, axborot texnologiyalari qanchalik mukammallashtirilgan bo'lsin pedagogik amaliyot, ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati baribir o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy kompetentligiga bog'liq. O'rganilayotgan musiqa asari o'qituvchining sodda, tushunarli va ravon nutqi orqali ochib berilmasa, pedagogik va axborot texnologiyalari, interfaol usullar ham kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash lozimki, muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda musiqiy faoliyatlar yuzasidan amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish, o'quvchi tomonidan egallangan nazariy bilim, malakalar va ko'nikmalarni darajasini munosib baholash o'qituvchidan yuksak kasbiy kompetentlik hamda musiqiy ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha ijodiy yondashuvni talab etadi. Shu bois, maktab musiqa ta'limi o'qituvchisi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, musiqiy faoliyatlar jarayonlarida samarali tatbiq etishga e'tiborni qaratish hamda musiqa ta'limi va tarbiyasida samaradorligiga erishish hozirgi kunning dolzarb muammosi sifatida e'tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24- yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 y. 25-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ 391-sonli qarori
3. Abalova M., 3. Galiyeva D. "Musiqa" 2-sinf . O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 y. – B.4.
4. Turg'unov S.T., Daniyarov B.X., Umaraliyeva M.A., Shodmonova Sh.S. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent.: «Sano-standard», 2012. - B.73.
5. Yusufxodjayeva F. M. Kasbiy mahorat va kompetentlikni rivojlantirish jarayonida motivlashtirish. Jurnal Zamonaviy ta'lim / Современное образование. 2019. 1 (74). - B. 15.